Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab milliy fond bozorini shakllantirish va uni kapital harakatining asosi bo'lib xizmat qilishi uchun keng qamrovli ishlar olib borildi. Fond bozorini shakllantirish va rivojlantirishning huquqiy asoslari, infratuzilmasi to'liq yaratildi. Lekin, ta'kidlash lozimki, mamlakat milliy fond bozori bugungi kunda pul resurslarini taqsimlash va qayta taqsimlashdek, ya'ni investitsiyalarni samarali jalb etishdek muhim vazifasini to'liq uddalay olmayapti. Shuning uchun ham milliy fond bozorini rivojlantirish bugungi kundagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Respublikamizda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama hamda jadal rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda jamiyatning barcha sohalarini liberalashtirish bo'yicha muhim yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi bo'yicha "mamlakatimizda moliya bozorini o'rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirish, ya'ni mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridanto'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish" asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning bajarilishi O'zbekistonda fond bozori orqali investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Yuqoridagi holatlar, fond bozorlari infratuzilmasini zamon talablari asosida rivojlanishi uchun avvalo shu bozorlarga chiqarilayotgan qimmatli qog'ozlarning yuqori likvidligi, bozorning kapitallashuv darajasi, daromadlilik, kapitalni oshirish kabi xususiyatlarini ta'minlash uchun xizmat qiladi.



Fond bozorlarining yana bir xususiyatli belgisi - bu ularning risk darajasiga tobeligi hisoblanadi. Shu sababli fond bozori infratuzilmasini samarali rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni chuqurroq tahlil qilish va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish lozim.

Ayni paytda fond bozorlari va ularning samarali faoliyati, ularning ishtirokchilari hamda muomaladagi xalqaro maqomga ega bo'lgan yuqori likvidli qimmatli qog'ozlar turlari muhim ahamiyatga ega. Fond bozorlarining rivojlanishi davlatning infratuzilmaviy rivojlanish darajasiga bevosita bog'liq bo'lib, avvalo milliy fond bozorini xalqaro fond bozorlariga integratsiyalashuvini ta'minlash orqali yuqori sur'atda rivojlanishga olib borsa, ikkinchidan, tijorat banklarining yuqori likvidligi va moliyaviy barqarorligini xalqaro me'yorlarga teng lashuviga olib keladi.

## METODOLOGIYASI

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy tushunchalarning mohiyatini olimlar, ekspertlar tomonidan tortishuvlar, ilmiy-nazariy jihatdan qarashlar, o'sha davr g'oyalari bilan uyg'unlashgan, uni bajaradigan funksiyalari, tamoyillari, o'ziga xos xususiyatlari, xarakterli tomonlari, bozor segmentlari orqali hamda ularning ishtirokchilari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar nuqtayi nazaridan yanada chuqurroq ilmiy asoslab berish takomillashib bir tizimga keltirilmoqda, zamon talablari va fundamental omillarga mos holda u ilmiy jihatdan asoslangan holda rivojlantirib borilmoqda. Xususan, fond bozorlarining iqtisodiy mohiyatini turli davrlarda yashab o'tgan iqtisodchi olimlar tomonidan turli xil g'oyalari orqali nazariyalar yaratilgan. Lekin, har bir iqtisodiy kategoriya doimiy ravishda zamonaviy omillar asosida takomillashib boradi. Jahon fond bozori ham hozirgi kunda qo'shimcha tarzda noan'anaviy, zamonaviy, yangi va xilma-xil funksiyalarni bajarmoqda. Shu nuqtayi nazardan uning iqtisodiy mohiyatini bir nechta iqtisodchi olimlarning nazariy ilmiy qarashlarini, hozirgi zamonaviy omillarni va boshqa o'ziga xos tomonlarini hisobga olgan holda chuqurroq o'rganib chiqish maqsadga muvofiq.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Ma'lumki, har qanday mamlakatning iqtisodiy holati unda mavjud bo'lgan va amal qilayotgan turli xil moliyaviy institutlar faoliyatiga bog'liq. Birjalar, banklar, sug'urta kompaniyalari, pensiya fondlari – bularning hammasi turli toifadagi xaridorlar va sotuvchilar o'rtasidagi pul-kredit va qarz, tovar, yuqori likvid qimmatli qog'ozlar va shu kabilarning oldi-sotdisida vositachi (dallo) sifatida yuzaga chiquvchi muassasalardir <sup>[2]</sup>.

Moliyaviy vositalar (bank kapitalini, uning likvidligini, bozorning kapitallashuv darajasini oshirishga xizmat qiluvchi sifatida) moliyaviy resurslarni investorlardan iste'molchilarga tomon va aksincha yo'nalishda harakat qilishini ta'minlovchi vositalar hisoblanadi.

Shuningdek, R.Xojimatovning fikricha, mamlakatimizda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va banklarning likvidligini oshirish uchun fond bozorlariga tijorat banklarining yuqori likvid an'anaviy obligatsiyalarining xalqaro bozorlarga integratsiyasini rivojlantirish lozim. Mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun, Markaziy bank transmission kanallarining samarasini inflyatsion targetlashga o'tish orqali oshirish maqsadida uning mustaqilligini oshirish nihoyatda muhim hisoblanadi.

Xalqaro kapital bozori rivojlanishining zamonaviy tendensiyalarini o'rgangan Qulmatov Ch. va To'ychiyev N.larning fikricha, "xalqaro kapital bozori moliyaviy globallashuv jarayoni mahsuli bo'lib, industrial mamlakatlarning umumjahon miqyosida iqtisodiy samaradorligini keskin oshirdi. Lekin, bu jarayon rivojlanayotgan mamlakatlar rivojiga ijobiy ta'sirdan ko'ra ko'proq salbiy ta'sir ko'rsatishi hozirda barchaga ayon bo'lib qoldi. Buning sababi rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti industrial davlatlar iqtisodiyotiga ko'proq bog'liqdir" <sup>[6]</sup>.

Iqtisodiy adabiyotlarda fond bozori va qimmatli qog'ozlar bozori bir xil mazmundagi tushunchalar sifatida talqin etilgan. Shu sababli avvalo ushbu tushunchalarning turli davrlarda tadqiqot olib borgan iqtisodchi-olimlarning ilmiy ishlarida yoritilishini o'rganish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Kapital bozorining iqtisodiy mohiyati, zaruriyati, tasniflanishi hamda uning mamlakatdagi iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi o'rni haqida ko'plab iqtisodchilar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Sohaning yetakchi olimlaridan U.Azizovning fikricha, kapital bozori aholining bo'sh turgan mablag'lari iqtisodiyot tarmoqlariga jalb qilinishida, xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi ko'payishida muhim ahamiyat kasb yetadi. O'z navbatida, fond bozori moliya bozorining tarkibiy qismi sifatida kredit bozori bilan raqobatga kirishishi kapital bozorida o'ziga xos raqobat muhitini yuzaga keltiradi. Bundan esa iqtisodiyot, qolaversa, farovonlik oshishi hisobiga aholi yutadi <sup>[7]</sup>. Yana bir yetakchi iqtisodchi olim professor S.Elmirzayevga ko'ra, pul bozorida naqd pul, qisqa muddatli to'lov vositalari, bir yilgacha bo'lgan qisqa muddatli jamg'armalar muomalasi tashkil etiladi. Kapital bozorida esa "uzun pullar" muomalasi tashkil yetilib, unda asosan aksiyalar va obligatsiyalar amal qiladi. Muomala muddati esa bir yildan ortiq bo'ladi. Kapital bozorining pul bozoriga asosiy farqli jihati uzoq muddatli investitsiyalardan foydalanilishi bilan izohlanadi <sup>[8]</sup>. Boshqa bir iqtisodchi X.Xasanov esa kapital bozorining iqtisodiy mohiyatini aniqlashning asosiy mezonini sifatida bozor ishtirokchilari o'rtasida kapitalni qayta taqsimlash va



kapitalni jamg'armalardan investitsiyalarga transformatsiya qilish bilan bog'liq funksiyalarning o'zaro bog'liqligi deb hisoblaydi <sup>[9]</sup>.

A.Shomirovning fikricha, "bundan bir qancha vaqt oldin real aktivlar foyda yoki daromad olishning bazasi sifatida qaralgan bo'lsa, bugungi kunda kapital deganda asosan korporativ tuzilmalarning pul hamda qimmatli qog'ozlar ko'rinishidagi aktivlari tushunilmoqda. Shuning uchun kapital bozoriga qaysidir ma'noda "pul va fond aktivlari bilan oldi-sotdi operatsiyalari o'tkaziladigan iqtisodiy makon" deb ta'rif bersak ham o'rinli hisoblanadi" <sup>[12]</sup>. A.Shomirov Kapital bozori tuzilmasini quyidagicha ifodalaydi:



1-rasm: Kapital bozori tuzilmasi

Mamlakat iqtisodiyotida kapital bozori segmentlari samarali faoliyat olib borishi uchun ma'lum bir shart-sharoitlar yaratilgan bo'lishi kerak. Kapital bozorining eng katta segmenti valyuta bozoridir, chunki u juda ko'p sonli operatsiyalarni amalga oshiradi. Valyuta segmenti tashqi savdo operatsiyalariga xizmat qiladi va bu yerda valyuta kursining o'zgarishidan daromad oladigan eng spekulativ operatsiyalar amalga oshiriladi.

Kapital bozorining ikkinchi yirik segmenti sug'urta xizmatlari bozoridir. Daromadning katta qismi sug'urtalovchilarning badallari hisobiga olinadi. Ushbu turdagi xizmatlarni taqdim etuvchi kompaniyalar turli o'lchamlarda bo'lishi mumkin, ammo eng katta ishtirokchilar transmilliy kompaniyalardir. Bu ishlab chiqarish sektori, shuningdek, uy xo'jaligi sektori manfaatlariga xizmat qiladi.

Kapital bozorining yana bir muhim segmenti fond bozoridir. Zero, qimmatli qog'ozlar bozori moliyalashtirishning eng muhim manbalaridan iqtisodiyotning barometri sifatida tan olinadi <sup>[13]</sup>. U har xil turdagi qimmatli qog'ozlar, shuningdek derivativlar – fyuchers va opsiolar bilan savdo qiladi. Ushbu segment omonatchilarni yanada faol investitsiya faoliyatiga undaydi va eng muhimi, mablag'larni qayta taqsimlash imkonini beradi. Real sektor vakillari ko'pincha qo'shimcha moliyaviy daromad olish maqsadida moliyaviy aktivlarining bir qismini qimmatli qog'ozlarda saqlaydilar. Bundan tashqari, ular turli vaqt oralig'ida risklar va daromadlarni taqsimlash imkonini beruvchi investitsiya portfellaridan foydalanadilar.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Dunyo bo'ylab fond bozori faoliyatiga hukumatning aralashuv siyosati doimiy ta'sir ko'rsatadi. 2020-yilning birinchi yarmida jahon mamlakatlari COVID-19 pandemiyasini e'lon qilganidan so'ng, fond bozorlari oldingi global moliyaviy inqirozlar (masalan, 1930-, 1987- va 2008-yillar) va Ispan grippi, SAPS va Ebola pandemiyasi davridagi darajalarga nisbatan ham misli ko'rilmagan yuqori volatillik(o'zgaruvchanlik)ni qayd yetdi <sup>[14]</sup>.

Qimmatli qog'ozlar moliya bozorida amal qiladigan moliyaviy instrumentlarning boshqa turlaridan farqli o'laroq eng katta va alohida bozoriga ega bo'lgan guruhini tashkil yetganligi munosabati bilan o'ni o'rganish alohida yondashuvni talab yetadi.

Qimmatli qog'ozlar iqtisodiyotda o'z ahamiyati, o'rni va funksiyalarini allaqachon isbotlaganligiga qaramay, ularning mazmuni to'g'risida hanuzgacha qizg'in bahslar davom yetmoqda. Qimmatli qog'ozlar bozorida bir paytning o'zida bozor aylanmasining obyekti hamda tomonlarga mulkiy va boshqa turdagi huquqlar bilan birga, majburiyatlarni ham berish xususiyatiga ega bo'lganligi bois, ularning iqtisodiy mohiyatini aniqlashda ushbu iqtisodiy hodisaning ham iqtisodiy, ham yuridik jihatlarini o'zida jamlovchi integratsiyalashgan yondashuv haqida fikr yuritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda va so'zlashuvda qimmatli qog'ozlar bozori va fond bozori tushunchalari ko'plab uchraydi. Iqtisodchi E.Jukovning fikricha, "hozirgi paytda qimmatli qog'ozlarning iqtisodiyotni moliyalashtirishda ishtirok etuvchi uchta bozori mavjud: birjadan tashqari, fond (birja) va ko'cha bozori" <sup>[15]</sup>.



Yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqqan holda, "fond bozori" va "qimmatli qog'ozlar bozori"ni bir xil mazmundagi tushunchalar sifatida qarashni o'rinli, deb hisoblaymiz. Bir vaqtning o'zida qimmatli qog'ozlar fond bozori (qimmatli qog'ozlar bozori)da harakatlanadi.

Fond bozori – qimmatli qog'ozlar emissiyasi va ularning oldi-sotdisi bilan shug'ullanadigan soha va qimmatli qog'ozlar muomalasi bo'yicha moliyaviy munosabatlar majmui bo'lib, uning asosiy vazifasi "jamg'arma-investitsiya" mexanizmini ishga tushirish, keng aytilgan takror ishlab chiqarishga va texnika taraqqiyotiga zarur bo'lgan moliyaviy mablag'larni to'plash va taqsimlash, yuridik va jismoniy shaxslarning sarmoyalarini jalb qilish, ularni yanada ko'paytirish va iqtisodiyot tarmoqlariga yo'naltirish orqali iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvini ta'minlash kabilardan iborat<sup>[16]</sup>. Shuningdek, fond bozori va unda faoliyat ko'rsatayotgan vositachilar moliyaviy tizimning tarkibiy qismi bo'lib, ortiqcha mablag'larni investorlardan iste'molchilarga qayta taqsimlash jarayonini tezlashtirishga imkoniyat beradi.

Fond bozorida bir paytning o'zida bozor aylanmasining obyekti hamda tomonlarga mulkiy va boshqa turdagi huquqlar bilan birga, majburiyatlarni ham berish xususiyatiga ega bo'lganligi bois, ularning iqtisodiy mohiyatini aniqlashda ushbu iqtisodiy hodisaning ham iqtisodiy, ham yuridik jihatlarini o'zida jamlovchi integratsiyalashgan yondashuv haqida fikr yuritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Fond bozorida bo'sh turgan pul mablag'larini to'plash, ularni ssuda kapitaliga aylantirish, so'ngra uni ishlab chiqarish jarayonlari ishtirokchilari (banklar, korxonalar, firmalar, shuningdek, mamlakat aholisi) o'rtasida taqsimlash munosabatlari: qimmatli qog'ozlar, korxonalarning aksiyalari hamda davlat obligatsiyalari bilan oldi-sotdi operatsiyalari olib boriladi. Fond bozori pul kapitalining qayta taqsimlanishida ishtirok yetadigan banklar, fond birjalari va boshqa moliya-kredit muassasalari majmuini o'z ichiga oladi. Kapital bozori pul bozori bilan birga iqtisodiyotning tarmoqlari va hukumat uchun tashqi kapital manbayi hisoblanadi, ssuda kapitaliga talab va taklifni shakllantiradi.

Kapital bozori kompaniyalar va davlatning qisqa muddatli qimmatli qog'ozlari bilan ham shug'ullanadi. Kapital bozori qimmatli qog'ozlarni sotuvchilar va sotib oluvchilar, ixtisoslashgan fond brokerlari, savdo va tijorat banklari, markaziy bank, pensiya fondlari, sug'urta kompaniyalari, investitsiya kompaniyalari, sanoat korxonalari, xorijiy investorlar, korxonalar, tashkilotlar ishtirok etadilar. Manbalar va kiritilgan sohalariga qarab xalqaro va milliy kapital bozorlari bor (valyuta bozori, birja).

Kapital bozori ikki asosiy vazifani bajaradi:

- a) birlamchi bozor yoki yangi emissiya bozori, bunda investitsiya va boshqa maqsadlar uchun zarur bo'ladigan kapital yangi aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarish hisobiga shakllantiriladi;
- b) ikkilamchi bozor, bunda mavjud qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar olib boriladi. Ikkilamchi bozor qimmatli qog'ozlarni sotuvchilardan xaridorlar qo'liga o'tishni engillashtiradi. Kapital bozori mamlakat moliya tizimida muhim o'rin egallab, aholining jamg'arilgan mablag'larini investitsiyalarga va investitsiyalarni qimmatli qog'ozlar portfeliga aylantirish mexanizmi bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonda 200 dan ortiq brokerlik idoralariga ega bo'lgan "Toshkent" fond birjasi 1994-yildan boshlab qimmatli qog'ozlar savdosi bilan shug'ullanadi.

Kapital bozori (qimmatli qog'ozlar bozori) moliya tizimining asosiy bo'g'ini sifatida uning barqarorligini ta'minlash, mamlakat raqobatbardoshligini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil hisoblanadi. Shu bois rivojlangan mamlakatlarda undan iqtisodiyotga investitsiya jalb qilishning asosiy vositalaridan biri sifatida keng foydalaniladi. Negaki, kapital bozori rivojlanmasa, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish hamda investitsiyaviy faollikni oshirish borasidagi barcha harakatlar besamar ketadi. Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-son Farmoni bilan mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish yuzasidan aniq vazifalar belgilab berilganligi kapital bozorini taraqqiy ettirish borasida muhim qadam bo'ldi, deyish mumkin.

Har qanday biznes subekti, u xoh jismoniy, xoh yuridik shaxs bo'lsin, o'zining biron tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun aksariyat holatlarda qo'shimcha moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezadi. Bizga ma'lumki, bugungi kunda ko'pgina ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni moliyalashtirish manbasi sifatida davlat tomonidan beriladigan mablag'lar yoki tijorat banklarining kreditlari asosiy dastak vazifasini bajarib kelmoqda. Shuning uchun ham moliyaviy bozorni taraqqiy ettirish bo'yicha hukumatimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biri kapital bozorini rivojlantirish, qaysidir ma'noda uni bozor iqtisodiyotining samarali elementiga aylantirish va harakatga keltirish masalasi hisoblanadi. Bu borada amalga oshirilishi belgilangan ishlarning normativ-huquqiy asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-yanvardagi "Kapital bozorini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo'shimcha



chora-tadbirlar to'g'risida"dagi PQ-90-son Qarorlarini keltirib o'tish o'rinli. Ushbu me'yoriy hujjatlarda kapital bozorini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan bo'lib, ular quyidagilar <sup>[17]</sup>:

- kapital bozorining raqobatbardoshligini oshirish va uning kapitallashuvini 2023-yil yakuniga qadar 45 trln. so'mga yetkazish, bank tomonidan kreditlashga muqobil bo'lgan samarali moliyalashtirish mexanizmini yaratish;
- xalqaro moliya bozorlari bilan faol integratsiyalashuv, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish va xorijda muvaffaqiyatli sinovdan o'tgan ilg'or yondashuvlarni qo'llash orqali barcha toifadagi investorlar uchun kapital bozorining qulayligini oshirish;
- kapital bozorining uyg'un faoliyati va uning barcha segmentlari rivojlanishini ta'minlash orqali 2023-yil yakuniga qadar respublika va hududiy investitsiya dasturlari doirasida loyihalarning qimmatli qog'ozlar chiqarish orqali moliyalashtirilgan qismini 5 foizga yetkazish;
- sohaga ilg'or xalqaro amaliyotni joriy qilish, ortiqcha to'siqlar va cheklovlarni bartaraf etish orqali fond bozorida rivojlanish maqsadlariga yo'naltirilgan investitsiyalarni faol moliyalashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- xalqaro mezonlar va tajribalarni joriy qilgan holda, kapital bozorini tartibga solishning yaxlitligini va tizimli tavakkalchiliklarning oldini olishni ta'minlovchi qonunchilik bazasini yaratish;
- kapital bozorini zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlar bilan ta'minlash tizimini rivojlantirish, istiqbolli, shu jumladan xorijiy mutaxassislarni jalb qilish uchun jozibador shart-sharoitlarni yaratish;
- kapital bozori uchun soha mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirishni tizimli yo'lga qo'yish;
- minoritarinvestorlar, kapitalbozorining boshqa ishtirokchilari hamda aholikeng qatlamlarining bilimlari, ko'nikmalari va moliyaviy savodxonligini oshirishni qo'llab-quvvatlash dasturlari doirasida 2023-yil yakuniga qadar 40 ming nafar aholini qamrab olish.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, samarali faoliyat ko'rsatuvchi fond bozori iqtisodiy o'sish sur'atlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillardan biridir. Rivojlangan fond bozori korxonalarga katta hajmdagi sarmoya talab qiluvchi loyihalarni moliyalashtirishda risklarni munosib baholash va diversifikatsiyalash, mablag'larni samarali jalb qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, fond bozori iqtisodiy tendensiyalarning indikator bo'lib xizmat qilishi mumkin, bu esa manfaatdor tomonlarga (shu jumladan, hukumatga) o'zining harakatlar strategiyasini ishlab chiqish va samarali amalga oshirilishiga imkon beradi.

Fond bozorini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy elementlaridan biri fond bozori to'g'risidagi qonunchilikning uning ishtirokchilari tomonidan amal qilinishi ustidan nazoratdir. Nazorat organlari tajribasi hamda qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari faoliyatini umumlashtirish bo'yicha nazorat elementlarini uslubiy jihatdan tizimlashtirish lozimdir. Yuqoridagilardan kelib chiqib, fikrimizcha, fond bozorini davlat tomonidan tartibga solish tizimini bilvosita (to'g'ridan-to'g'ri) va bevosita usullarga ajratish mumkin <sup>[17]</sup>.

Rivojlanayotgan fond bozorining rivojlangan bozorga aylanish jarayonini o'rganish natijasida ushbu jara-yonning asosiy iqtisodiy, texnik va siyosiy muammolari aniqlandi.

Iqtisodiy muammolarga iqtisodiy rivojlanish muammolarini hal yetish, xususan, iqtisodiyotning moliyaviy jihatdan to'yinganlik darajasini oshirish, jamoaviy investitsiyalash tizimini rivojlantirish va makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni barqarorlashtirish kiradi.

Rivojlanayotgan va rivojlangan fond bozorlari tahlili shuni ko'rsatdiki, iqtisodiyot pul resurslari bilan qanchalik to'yingan bo'lsa, xo'jalik aylanmasida qimmatli qog'ozlar komponenti shunchalik yuqori bo'ladi, yalpi ichki mahsulotga nisbatan fond bozori kapitallashuvi shunchalik yuqori bo'ladi.

Fond bozorining rivojlanishibevosita iqtisodiy o'sishnirag'batlantirish siyosatiga bog'liq, ammo rivojlanayotgan mamlakatlar har doim ham to'g'ri va malakali siyosat olib boravermaydi. Zamonaviy sharoitda mamlakatning iqtisodiy o'sishi ushbu iqtisodiyot tovar va moliya bozorlarining jahon bozorlariga dinamik ravishda integratsiyalashuviga bevosita bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida bozorlarni erkinlashtirishni talab etadi. Biroq moliya sektorini erkinlashtirish bozor riski (tavakkalchiligi) ko'lamini hisobga olgan holda mutanosib ketma-ketlikda amalga oshirilishi kerak.

Rivojlanayotgan fond bozorini rivojlangan bozorga aylantirishning texnik vazifalari quyidagilardan iborat: jahon fond bozoriga samarali integratsiya qilish uchun zarur infratuzilmani ta'minlash va fond bozorida faoliyatni tartibga soluvchi qonunchilik bazasini takomillashtirish. Ko'pgina rivojlanayotgan fond bozorlariga xos



bo'lgan muammo shundaki, rivojlanayotgan mamlakatlarda odatda fond bozori infratuzilmasini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan davlatva jamiyatning e'tibori yetarli darajada bo'lmaydi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmaydi. Binobarin, fond bozorining rivojlanganligi uning mamlakat uchun qanchalik dolzarb va muhim ekanligiga bevosita bog'liq bo'lib, bu davlatning xohish va qat'iyatida o'z aksini topadi. Shuningdek, davlatning siyosiy qo'llab-quvvatlovi milliy fond bozori manfaatlarini xalqaro moliya bozorlarida himoya qilish shaklida ham ayniqsa muhimdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алехин, Б. И. Рынок ценных бумаг: учебник и практикум для вузов / Б.И. Алехин. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Издательство Юрайт, 2023. – 497 с.
2. Шохаъзамий Ш.Ш. Финансовый рынок и ценные бумаги. Книга 1. Учебник.-Т.: Иқтисод-молия, 2005.-ц.13, 31-34.
3. Бутиков И.Л.. Проблемы формирования и функционирования рынка ценных бумаг в Узбекистана. БФА.: Диссертация на соискание ученой степени доктор экономического наук. Тошкент.: 2009.г. 416 стр.
4. Хожиматов Р.Х. Фонд бозорини ривожлантириш хусусиятлари ва истиқболли банк воситалари. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 2, март-апрел, 2019-йил.
5. Қўлматов Ч., Тўйчиев Н. Халқаро капитал бозори ривожланишининг тенденциялари. Экономика. Научно-аналитический электронный журнал. Выпуск № 2. Июль 2022 года. e-жоурнал.уз
6. Азизов У.Ў. “Капитал бозори: Иқтисодий ўсишни таъминловчи драйвер” <https://finantse.uz/index.php/uz/fuz-menu-biznes-uz/6939-kapital-bozori-i-tisodijisishni-ta-minlovchi-drajver>
7. Элмирзаев С.Э. ва бошқалар. Молия бозори. Дарслик /– Т.: “ИҚТИСОД-МОЛИЙА”, 2019. – 324 б.
8. Хасанов Х.Н. Иқтисодиётнинг корпоратив секторига капитал бозоридан молиявий ресурсларни жалб қилиш амалиётини такомиллаштириш. Иқт. фан. бўй. фал. док. (Пх,Д).Автореф. – Т., 2020.
9. Берзон Н.И., Буянов Е.А. Рынок капитала. – М.: “ВИТИ-ПРЭСС”, 2006. С. 28.
10. Белоглазова Г.Н. Деньги, кредит, банки. – М.: Высшее образование. 2009. – С. 392.
11. Шомиров А. Капитал бозорини экстенсив ривожлантириш истиқболлари. “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий журнали. №1, феврал, 2022 йил. ИСЧН: 2181-1016
12. Liu, Q., Wang, C., Zhang, P., Zheng, K. Detecting stotsk market manipulation via machine learning: Evidentse from China Setsurities Regulatory Commission punishment sases International Review of Finantsial Analysis, Volume 78, November 2021. <https://www.stsientsestiretst.tsom/stsientse/artitsle/pii/S1057521921002143#l>
13. Helmi Hammami Covid-19 health politsy intervention and volatility of Asian sapital markets <https://www.stsientsestiretst.tsom/stsientse/artitsle/pii/S0040162521002729>
14. Рынок ценных бумаг. /Под.ред. Е.Ф. Жукова. – М.: ЮНИТИ, 2003. – С.13.
15. Султонов Ш.Н.Ўзбекистонда фонд бозорини ривожлантириш йўллари. Иқтисодиёт ва таълим / 2022-йил 5-сон. 185-бет.
16. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йил 17-январдаги “Капитал бозорини қўллаб-қувватлашнинг самарали механизмларини жорий этишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”даги ПҚ-90-сон Қарори.
17. Sultonov, Sherali, ET AL. “Development ways of stotsk market in Uzbekistan (in the sase of “TAShKENT” republitsan stotsk yexchange).” Journal of Crititsal Reviews 7.11 (2020): 1476-1482.
18. Jumaniyazov, I. T. (2021). The Progressive Foreign Experiments in the Atstivity of Sovereign Wealth Funds. Annals of the Romanian Sotsiety for CellBiology, 109-116.
19. Jumaniyozov, I. (2018). Impatst of Development Finantse Institutions on Etsonomits Growth: Implitsations for Retsonstrutstion and Development Fund of Uzbekistan. International Journal of Management Stsientse and Business Administration, 4(2), 84-88.
20. Jumaniyozov, I. (2020). ISSUES OF ENSURING THE TRANSPARENCY OF SOVEREIGN WEALTH FUNDS. International Finantse and Atstsounting, 2020(5), 1.
21. Jumaniyazov, I. (2020). FOREIGN EXPERIENCE IN THE ACTIVITIES OF SOVEREIGN FUNDS. International Finan-tse and Atstsounting, 2020(2), 1.

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 8**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

